

## FIZIKA

1. [1,3 ball]

Avtomobilning boshlang'ich tezligi  $10 \text{ m/s}$ , tezlanishi  $-2 \text{ m/s}^2$  ga teng.

**U qancha (m) masofa bosib o'tib to'xtashini aniqlang.**

- A) 25
- B) 100
- C) 20
- D) 50

2. [1,3 ball]

Silliq gorizontal sirtda turgan  $5 \text{ kg}$  massali jismga  $20 \text{ N}$  va  $55 \text{ N}$  kuchlar ta'sir qilmoqda.

**Jismning minimal tezlanishini ( $\text{m/s}^2$ ) toping.**

- A) 4
- B) 7
- C) 11
- D) 15


3. [1,3 ball]

7200 m balandlikda  $216 \text{ km/h}$  doimiy tezlik bilan uchayotgan samolyotning potensial energiyasi kinetik energiyasidan necha marta katta?

- A) 30
- B) 20
- C) 10
- D) 40

4. [2,2 ball]

Grafikda to'g'ri chiziqli harakatlanayotgan jism tezligining o'zgarishi tasvirlangan.



**Grafikning BC qismida jism bosib o'tgan masofani (m) toping.**

- A) 475
- B) 337,5
- C) 425,5
- D) 400

5.

[2,2 ball]

Tormoz bergen avtomobil asfaltda 25 m iz qoldirib to‘xtagan.

Agar g‘ildiraklar bilan asfalt orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,45 bo‘lsa, **avtomobilning dastlabki tezligini ( $m/s$ ) toping.**

- A) 18
- B) 17
- C) 16
- D) 15

6.

[2,2 ball]


1,2 m uzunlikdagi chilvirga bog‘langan 0,9 kg massali shar vertikal tekislikda aylantirilmoqda.

Pastki nuqtada sharning tezligi 4 m/s bo‘lsa, **shu paytda chilvirning tarangligini (N) toping.**

- A) 3
- B) 9
- C) 21
- D) 19

7.

[2,2 ball]



Rasmda tasvirlangan vaznsiz bloklarga  $m$  va  $2m$  massali sharchalar osilgan.  $A$  sharcha  $g/2$  tezlanish bilan vertikal yuqoriga,  $B$  sharcha esa  $g/2$  tezlanish bilan vertikal pastga harakatlantirilmoqda.

$F_1/F_2$  nisbatni toping.

- A) 1
- B)  $1/3$
- C) 3
- D)  $3/2$

8. [2,2 ball]

Bino bir nechta granit ustunlarga ega bo'lib, har bir ustunning hajmi  $9 \text{ m}^3$  ga, asosining yuzi  $1,4 \text{ m}^2$  ga teng. Granitning zichligi  $2800 \text{ kg/m}^3$ .

**Bitta ustun o'z og'irligi ta'sirida poydevorga qancha bosim (kPa) berishini aniqlang.**

- A) 160
- B) 200
- C) 180
- D) 220

9. [2,2 ball]

Suvning sirtidan  $5 \text{ m}$  balandda quvvatli so'rvuchi nasos o'rnatilgan. Nasos suv sirti bilan quvur orqali birlashtirilgan.

**Nasos ishlagan paytda suvning bu quvurdagi maksimal tezligini ( $\text{m/s}$ ) aniqlang.**

- A) 8
- B) 6
- C) 10
- D) 9

10. [2,2 ball]

Suv sirtidagi to'lqinning 1- va 3-do'ngliklari orasidagi masofa  $20 \text{ cm}$ , uning tarqalish tezligi  $0,1 \text{ m/s}$  ga teng.

**To'lqinning tebranish davrini ( $\text{s}$ ) toping.**

- A) 1,2
- B) 0,2
- C) 0,5
- D) 1

11. [1,3 ball]

Ideal gazning bosimi  $2,5 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ , zichligi  $12 \text{ kg/m}^3$  ga teng.

**Gaz molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligini ( $\text{m/s}$ ) toping.**

- A) 160
- B) 250
- C) 300
- D) 200

12.

[1,3 ball]

0,4 kg massali alyuminiy berilgan.

**Uning issiqlik sig‘imini (J/K) aniqlang.**

- A) 900
- B) 360
- C) 640
- D) 420

13.

[2,2 ball]

Yopiq idishdagi ozon ( $O_3$ )  $727^{\circ}\text{C}$  haroratda turibdi. Qanchadir vaqtadan so‘ng barcha ozon kislorodga ( $O_2$ ) aylandi va idishdagi harorat  $600^{\circ}\text{C}$  ga pasaydi.

Bunday o‘zgarishlardan so‘ng **idishdagi bosim necha foiz kamayganligini aniqlang.**

- A) 60
- B) 50
- C) 30
- D) 40

14.

[2,2 ball]

Asosining yuzi  $1 \text{ dm}^2$  bo‘lgan vertikal joylashgan silindrini 20 kg massali porshen ostida geliy gazi bor. Geliy gazi izobarik qizdirilganda porshen  $30 \text{ cm}$  ko‘tarildi.

**Gaz kengayishda qancha ish (J) bajarganini aniqlang.**

- A) 540
- B) 360
- C) 480
- D) 240

15.

[2,2 ball]

$19^{\circ}\text{C}$  haroratlari  $5 \text{ m}^3$  havoda 34,5 g suv bug‘i bor.

$t, ^\circ\text{C}$	$\rho_o, \text{ g/m}^3$
15	12,8
16	13,6
17	14,5
18	15,4
19	16,3
20	17,3

**Bu havo to‘yinishi uchun unga qancha (g) massali suv bug‘latish kerakligini aniqlang.**

- A) 43
- B) 47
- C) 41
- D) 45

16.

[1,3 ball]

Zaryadli jismga ta'sir etuvchi 2 ta kuchning natijaviysi 32 mN ga teng va gorizontal yo'nalgan.

Agar og'irlik kuchi 24 mN bo'lsa, **elektr maydon ta'sirining modulini (mN) aniqlang.**

A) 56


B) 12

C) 64

D) 40

17.

[1,3 ball]



Reostatning surgichi chapga surilsa, **ampermetrning ko'rsatishi qanday o'zgarishini aniqlang.**

A) o'zgarmaydi

B) kamayadi

C) ortadi

D) nolga teng bo'ladi

18.

[1,3 ball]

200 m to'lqin uzunligida ishlayotgan radiostansiyani eshitish uchun 6 MHz chastotaga sozlangan radiopriyomnik sxemasidagi **sig'imni qanday o'zgartirish kerak?**

A) 4 marta kamaytirish kerak

B) 16 marta oshirish kerak

C) 16 marta kamaytirish kerak

D) 4 marta oshirish kerak

19.

[2,2 ball]

Sig'imi  $C$  bo'lgan yassi havo kondensatoriga dielektrik singdiruvchanligi  $\varepsilon$  bo'lgan modda kiritildi. Bu kondensatorda  $C_x$  sig'imli kondensatorni ketma-ket ulaganda batareyaning umumiy sig'imi  $C/2$  ga teng bo'ldi.

$C_x$  sig'imni aniqlang.

A)  $\frac{\varepsilon C}{2\varepsilon - 1}$

B)  $\frac{2\varepsilon C}{\varepsilon - 2}$

C)  $\frac{\varepsilon C}{\varepsilon - 1}$

D)  $\frac{2\varepsilon C}{\varepsilon - 1}$

20.

[2,2 ball]

Zaryadlari  $3 \cdot 10^{-8}$  C ga teng bo'lgan ikkita nuqtaviy zaryad havoda bir-biridan 50 cm masofada turibdi. Ularni 10 cm gacha yaqinlashtirildi.

Bu jarayonda bajarilgan ishni ( $\mu\text{J}$ ) toping.

- A) 32,4
- B) 8
- C) 4
- D) 64,8

21.

[2,2 ball]

Kimyoviy tok manbaining EYuKi 6 V, ichki qarshiligi  $1/4 \Omega$  ga teng. Manba zanjirga 2 A tok berayotgan bo'lsa, **uning qutblaridagi kuchlanishni (V) toping.**

- A) 6,5
- B) 7
- C) 5,5
- D) 5

22.

[2,2 ball]

Alyuminiydan yasalgan simning  $0^\circ\text{C}$  dagi qarshiligi  $3,5 \Omega$  ga teng.

Uning qarshiligi  $200^\circ\text{C}$  da qanchaga ( $\Omega$ ) ortishini aniqlang.  $\alpha=0,0028 K^{-1}$

- A) 1,87
- B) 1,96
- C) 2,12
- D) 3,14

23.

[2,2 ball]

O'lchamlari 2 cm va 3 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shklidagi ramka induksiyasi 10 T bo'lgan magnit maydonda turibdi.

Ramkadan 2 A tok o'tganda, **unga ta'sir qiladigan maksimal kuch momentini (mN·m) toping.**

- A) 96
- B) 12
- C) 48
- D) 24

24.

[2,2 ball]

Elektron magnit maydonda  $y$  o‘qi bo‘ylab harakatlanmoqda.

Lorens kuchi  $x$  o‘qiga qarshi yo‘nalgan bo‘lsa, **magnit maydon yo‘nalishini aniqlang.**

- A)  $x$  o‘qi bo‘ylab
- B)  $z$  o‘qi bo‘ylab
- C)  $y$  o‘qiga qarshi
- D)  $z$  o‘qiga qarshi

25.

[2,2 ball]

$8 \Omega$  aktiv,  $9 \Omega$  sig‘im va  $3 \Omega$  induktiv qarshiliklarni ketma-ket holda ulab tuzilgan zanjir uchlariga effektiv qiymati  $140 \text{ V}$  bo‘lgan o‘zgaruvchan kuchlanish berilgan.

**Zanjirdagi foydali quvvatni ( $\text{W}$ ) toping.**

- A) 1568
- B) 1960
- C) 1764
- D) 588

26.

[1,3 ball]

To‘lqin uzunligi  $\lambda$  bo‘lgan nur optik zichligi  $4/3$  bo‘lgan suyuqlikka tushib, sinmoqda.

**Bunda nurning chastotasi qanday o‘zgarishini aniqlang.**

- A) 25 % ortadi
- B) 25 % kamayadi
- C) o‘zgarmaydi
- D) 33 % ortadi

27.

[2,2 ball]

Linza o‘zidan  $40 \text{ cm}$  masofada joylashgan buyumning 2 marta kichiklashgan, mavhum tasvirini hosil qildi.

**Shu linzaning optik kuchini (dptr) aniqlang.**

- A) 2,5
- B) -2,5
- C) -7,5
- D) 7,5

28.

[2,2 ball]

Harakatdagi jismning massasi  $m = (5/3)m_0$  ga teng.  $m_0$  – jismning tinchlikdagi massasi.

**Jismning tezligini toping.**

- A)  $0,4c$
- B)  $0,5c$
- C)  $0,6c$
- D)  $0,8c$

29.

[1,3 ball]

$^{209}_{84}Po$  yadrosining tarkibini aniqlang.

- A) 84 ta elektron, 209 ta neytron
- B) 84 ta elektron, 125 ta neytron
- C) 125 ta neytron, 84 ta proton
- D) 209 ta nuklon, 84 ta neytron

30.

[2,2 ball]

Fotoeffektning qizil chegarasi  $\nu$  bo'lgan metall sirtiga  $5\nu$  chastotali, qizil chegarasi  $2\nu$  bo'lgan metall sirtiga esa  $4\nu$  chastotali fotonlar tushmoqda.

Uchib chiqqan fotoelektronlarning maksimal kinetik energiyalari mos ravishda  $E_1$  va  $E_2$  bo'lsa,  $\frac{E_1}{E_2}$  ifodaning qiymatini toping.

- A)  $5/4$
- B) 2
- C)  $5/2$
- D)  $1/2$

31.

[2,2 ball]

Vodorod atomidagi elektron 4-kvant holatidan 2-kvant holatiga o'tdi.

**Nurlangan fotonning energiyasini (eV) toping.**

- A) 2,55
- B) 4,15
- C) 6,82
- D) 12,38

32.

[2,2 ball]


Arqonning uzunligini o'lchagan o'quvchi natijani  $l=(17,2\pm0,005)$  m deb ifodaladi.

O'lchovning nisbiy xatoligini (%) toping.

- A) 0,06
- B) 0,05
- C) 0,04
- D) 0,03

**Topshiriqlar (33-35) va javob variant (A-F) larini o'zaro to'g'ri moslashtiring.**

Grafikda bir atomli ideal gazning  $1 \rightarrow 2 \rightarrow 3 \rightarrow 1$  o'tishi tasvirlangan.



- A)  $11,5P_0V_0$
- B)  $8,5P_0V_0$
- C)  $12P_0V_0$
- D)  $6P_0V_0$
- E)  $10P_0V_0$
- F)  $2P_0V_0$

33.

[2,2 ball]

Gazning bajargan ishini toping.

34.

[2,2 ball]

$1 \rightarrow 2$  o'tishda gaz qancha issiqlik chiqargan?

35.

[2,2 ball]

$3 \rightarrow 1$  o'tishda gazga qancha issiqlik miqdori berilgan?

36. 175 m balandlikdan boshlang'ich tezlik bilan erkin tashlangan jism 2-sekundda 25 m yo'l o'tdi.

[1,5 ball]

a) Jismning boshlang'ich tezligini (m/s) toping.

Javob: a) \_\_\_\_\_

[1,7 ball]

b) Jism dastlabki 4 s da qancha (m) masofa bosib o'tishini aniqlang.

Javob: b) \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37. Yer sirtida turgan matematik mayatnik ipining uzunligi 0,5 m ga teng. Bu mayatnik massasi va radiusi Yernikidan 2 marta katta bo‘lgan Y sayyoraga ko‘chirildi.

[1,5 ball]

- a) Y sayyora sirti yaqinida erkin tushish tezlanishini ( $N/kg$ ) aniqlang.

Javob: a) \_\_\_\_\_

[1,7 ball]

- b) Y sayyorada mayatnik yuqoriga  $5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanayotgandagi tebranish davrining Yer sirtida tekis ko‘tarilayotgandagi tebranish davriga nisbatini toping.

Javob: b) \_\_\_\_\_

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

38. Vaznsiz qo‘zg‘almas blok orqali o‘tkazilgan ingichka ipning uchlariga og‘irliliklari  $P$  va  $20 \text{ N}$  bo‘lgan yuklar osilgan. Yuklar tinch holatdan boshlab harakatga kelganidan  $2,5 \text{ s}$  vaqt o‘tgach  $20 \text{ N}$  og‘irlilikdagi yuk  $6,25 \text{ m}$  masofaga pastga tushdi.

[1,5 ball]

- a) Yuklarning tezlanishini ( $\text{m/s}^2$ ) toping.

Javob: a) \_\_\_\_\_

[1,7 ball]

- b) Harakat vaqtida blok o‘qiga ta’sir etuvchi kuchni ( $\text{N}$ ) aniqlang.

Javob: b) \_\_\_\_\_

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

39. Hajmi  $400 \text{ l}$  bo‘lgan yopiq idishda  $27^\circ\text{C}$  haroratlari to‘yinmagan havo bor. Idishga  $2 \text{ g}$  massali suv bug‘latilsa, idishdagi suv bug‘lari to‘yingan holatga o‘tadi. Suv bug‘ining to‘yingan holatdagi parsial bosimi  $3,6 \text{ kPa}$  ga teng.

[1,5 ball]

- a) Dastlabki havoning absolyut namligini ( $\text{g/m}^3$ ) toping.

Javob: a) \_\_\_\_\_

[1,7 ball]

- b) Dastlabki havoning nisbiy namligini (%) toping.

Javob: b) \_\_\_\_\_

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

40. Bir atomli ideal gazga 6 kJ issiqlik miqdori berildi. Bu jarayonda gazning hajmi va absolyut temperaturasi  $V = k\sqrt{T}$  qonuniyat bo'yicha bog'langan. Bu yerda  $k$  – o'zgarmas kattalik.

[1,5 ball]

- a) Bu jarayonda gazning bajargan ishini (J) toping.

Javob: a) \_\_\_\_\_

[1,7 ball]

- b) Bu jarayonda gazning ichki energiyasi qanchaga (kJ) ortishini toping.

Javob: b) \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

41. 1200 kg massali elektromobil akkumulyatorining EYuKi 400 V ga teng. Elektromobil tezligini 30 m/s dan 5 m/s gacha kamaytirdi.

[1,5 ball]

- a) Bu jarayonda elektromobil akkumulyatorida qancha energiya (kJ) to'planishini aniqlang.

Javob: a) \_\_\_\_\_


[1,7 ball]

- b) Bu jarayonda elektromobil akkumulyatorida qancha (kC) zaryad to'planishini aniqlang.

Javob: b) \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

42.



Sxemada  $R=60 \Omega$ ,  $L=0,2 \text{ H}$  va  $u=160\sin 400t [V]$ .

[1,5 ball]

- a) Kalit *a* vaziyatda bo'lganida ampermetrning ko'rsatishini (A) toping.

Javob: a) \_\_\_\_\_


[1,7 ball]

- b) Kalit *b* vaziyatda bo'lganida ampermetrning ko'rsatishini (A) aniqlang.

Javob: b) \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

43.



Linza yordamida  $a$  buyumning  $5/4$  marta kattalashgan  $b$  tasviri hosil qilindi. Buyum va tasvir orasidagi masofa  $2$  cm ga teng.

[1,5 ball]

a) Linzaning optik kuchini (dptr) toping.

Javob: a) \_\_\_\_\_

[1,7 ball]

b) Agar buyum linzaga  $3$  cm yaqinlashtirilsa, linzaning kattalashtirishi nechaga teng bo‘lishini aniqlang.

Javob: b) \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

44. Zarra  $0,5c$  tezlik bilan harakatlanayotgandagi massasi  $\frac{m}{\sqrt{3}}$  ga teng.

[1,5 ball]

a) Zarraning tinchlikdagi massasini toping.

Javob: a) \_\_\_\_\_

[1,7 ball]

b) Zarraning  $0,6c$  tezlik bilan harakatlanayotgandagi kinetik energiyasini toping.

Javob: b) \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

45. G‘alayonlangan vodorod atomining ionlashish energiyasi  $3,4$  eV ga teng.

[1,5 ball]

a) Atom foton yutib impuls momentini  $\hbar$  ga oshirgan bo‘lsa, uning ionlashish energiyasi (eV) nechaga teng bo‘lishini aniqlang.

Javob: a) \_\_\_\_\_

[1,7 ball]

b) Dastlabki atom foton nurlatib impuls momentini  $\hbar$  ga kamaytirgan bo‘lsa, uning ionlashish energiyasi (eV) nechaga teng bo‘lishini aniqlang.

Javob: b) \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.